

.....

BADIIY MATN EKSPRESSIVLIGINI TA'MINLASHDA DIALEKTIZMLARDAN FOYDALANISH

(Erkin Vohidov ijodi misolida)

Xusnida Usmonova

Farg'ona davlat universiteti talabasi

Annotatsiya: mazkur maqolada Erkin Vohidov ijodida dialektal birliklarning qo'llanish xususiyatlari va ularning badiiy-estetik funksiyalari tahlil qilingan. Dialektal birliklarning asar tilini xalqona ruhda shakllantirish, milliy va mahalliy koloritni ifodalash, personajlar nutqini individuallashtirish, poetik ohangdorlik va yumoristik ta'sirchanlikni kuchaytirishdagi ahamiyati yoritilgan. Tadqiqot natijasida Erkin Vohidov dialektizmlardan ijodiy mahorat bilan foydalanib, badiiy asarlarning til boyligi va uslubiy rang-barangligini ta'minlagani asoslangan.

Kalit so'zlar: dialektizm, sheva, dialektal birlik, leksik dialektizm, fonetik dialektizm, morfologik dialektizm, badiiy til, personaj nutqi, mahalliy kolorit.

Har bir ijodkor asar yaratarkan, u ijodining namunasiga o'z ruhi, o'z uslubi va o'z yo'nalishini qo'shadi. Adiblarning ijodidagi eng yuksak yutug'i ham aynan shunda namoyon bo'ladi. Biror bir asarni kitobxon o'qir ekan, u muallifni hali bilmay turib ham ijodkorning o'ziga xos uslubidan va asar yozuvchisini aniqlashi mumkin. Chunki har bir ijodkorning xos yo'li bor; satrlarning uzunligi yoki qisqaligi, so'zlarni tanlash mahorati kabi unsurlar haqiqiy ijodkorning xususiyatlarini aniqlash uchun vosita hisoblanadi.

Erkin Vohidovni nasrda ham, nazmda ham ijodining eng yuksak nuqtalarini ko'rishimiz mumkin. Adib asarlarida shunchaki so'z ishlatilmaydi; u so'zlarni "gapirtiradi". Shu bilan birga, badiiy asarlarda ishlatiladigan til faqat adabiy tildan iborat bo'lishi shart emas. Ijodkor personajlar nutqini ifodalash, badiiy asardagi qahramonlar xarakterini va mahalliy, milliy koloritni yaratish uchun turli lisoniy vositalardan foydalanishi mumkin. Shunday vositalardan biri shevalarga oid so'zlardir.

Dialekt so'zi grekcha bo'lib, "sheva", "lahja" degan ma'noni anglatib (aslida qabila tili demakdir), aksariyat til xususiyatlari o'xshash bo'lgan shevalarni birlashtiradi. Boshqa tillar kabi o'zbek adabiy tilini boyituvchi manbalardan biri ham

dialektal soʻzlardir. Chunki soʻzlarning koʻpchiligi tilimizning uzoq oʻtmishini, etnik holatini, xalqimizning turmushi, madaniyati, urf-odatlarini va shu kabi jihatlarni oʻzida yorqin aks ettiradi. Adabiy til meʼyorlari umumiylikni talab qiladi, shuning uchun oʻzbek adabiy tiliga shevaga xos ayrim soʻzlar kiritilgan boʻlsa-da, adabiy til dialektlarni oʻziga boʻysundirishga, ularni umumlashtirishga intiladi.

Dialektal soʻzlarning koʻpchiligi, garchi qoʻllanishda hududiy jihatdan cheklangan boʻlsa ham, lekin barcha sheva vakillari uchun tushunarlidir, ayrimlari esa qisman, u yoki bir daraja anglashilarli boʻlib, turli qoʻshimcha izohlarsiz ham ishlatilaveradi [2].

Yuqorida aytganimizdek, Erkin Vohidov sheʼriyatida har bir soʻzni ishlatish mahoratiga katta ahamiyat beradi. U qofiyadosh soʻzlarni tanlash va fikrini ixcham, loʻnda va mazmunan toʻliq bayon qilish maqsadida asarlarida dialektizmga oid soʻzlarni ham qoʻllaydi. Bundan tashqari, asarlardagi personajlar nutqida dialektizmlarning faqat leksik emas, fonetik va morfologik shakllarini ham uchratishimiz mumkin.

Oʻzbek tili shevaga va dialektlarga boy til boʻlganligi sababli, hududiy jihatdan soʻzlardagi morfemalarni qoʻllash ham farqlanadi. Turli hududlarda morfemalarning ishlatilishi turlicha boʻladi. Til doim qisqalikka intilgani sababli morfemalardagi oʻzgarishlar koʻpincha qisqartirish natijasida yuzaga keladi. Shu sababdan, badiiy asarda ishlatiladigan qoʻshimchalar oʻzgarishi hududiy xususiyatga ega boʻladi va asarga uslubiy maʼno yuklaydi. Bu taʼsirchanlikni oshiradi, uslubiy rang-baranglikni yuzaga keltiradi va baʼzan yumor uchun ham xizmat qiladi.

Fonetik dialektlarni qoʻllashda asosiy oʻzgarishlar fonemalarda uchraydi. Tovushlarning turli hudud shevalarida ishlatilishi natijasida soʻzlar tarkibida kichik oʻzgarishlar yuzaga keladi. Ularning umumiy soʻz tarkibi va maʼnosini oʻzgartirmasligi sababli, bular hamma uchun tushunarli boʻladi. Lirikada esa bunday hodisalar maʼnodoshlik va qofiya tizimini taʼminlashga xizmat qiladi.

Leksik dialektlari keng tarqalgan boʻlib, hududga xos soʻzlarni oʻz ichiga oladi. Ular adabiy tilda muqobil maʼnoni beradigan, koʻpincha, faqat maʼlum bir hudud aholisi uchun tushunarli boʻlgan soʻzlardir. Leksik dialektizmlar morfologik va fonetik dialektizmlarga qaraganda qiyinroq tushuniladi, chunki unda butun soʻz tarkibida

o'zgarish bo'ladi. She'riyatda esa bu dialekt turi badiiy san'atni kuchaytirish uchun ishlatiladi. Masalan, Erkin Vohidovning "Sirdaryo o'lanlari" she'rida quyidagi misralar bor:

*Sen borsanki, keng vohada hayot bor,
Demak, yurtning labida bol, **nabot** bor,
Senda elim sabotidek sabot bor [4].*

Bu yerda "nabot" so'zi dialektik so'z bo'lib, tarixiylik bo'yog'iga ham ega, adabiy tilida "novvot" shaklida ishlatiladi. So'zlashuvda insonlar qisqalikka va qulaylikka intilganliklari tufayli ham, shevaga oid so'zlarning aksariyatida harflar almashinuvi yoki tushib qolishi kabi hodisalar yuz berganini ko'rishimiz mumkin. Ammo bu faqatgina tejamkorlikka intilish emas, ohangdorlik va musiqiylikni ta'minlash vositasi hamdir.

Erkin Vohidovning "Donishqishloq latifalari" turkum she'rlarida ham dialektik birliklar uchramiz:

1. *Kim charxpalak kosasin*
***Yalpoq** qilish kerak der,*
Kim kosaga osma sim
Qopqoq qilish kerak der.
2. *Loyni qordi, ishlatib —*
*Zang ketmonu **paqirni**⁵*
3. *Jo 'yak tortib tomiga,*
***Makka** ekkan o 'shalar [5].*

Bu yerda "yalpoq" so'zi adabiy tildagi "yapaloq" ma'nosida tushuniladi. "Paqir" so'zi vodiy shevasiga xos bo'lib, "chelak" degan ma'noni bildiradi. "Makkajo'xori" ma'nosidagi "makka" so'zi esa ishlatilgan. Bu kabi shevaga oid so'zlar bejizga Erkin Vohidov she'ridagi joy nomi Donish qishloq va u Farg'ona viloyatida joylashgan. Erkin Vohidov ham Farg'ona viloyatining Oltiariq tumanida tug'ilgan. Demak, ijodkor o'zi tug'ilib, o'sgan qishlog'ining shevasidan foydalanib, she'riy asarlarini boyitgan. Bundan tashqari, she'riy parchadan ko'rinib turganidek, shevaga oid so'zlarni qo'llash badiiy matnda, nutqni soddalashtirishga, xalq tiliga yaqin qilishga va mahalliy koloritni bo'rttirib ko'rsatishga xizmat qilgan. Lirikada shevaga oid so'zlarni qo'llash

yengil kulgu va yumoristik kayfiyatga ham yuzaga keltiradi.

Odatda, shaxslar nutqi ular qurshagan sharoit bilan bog‘liq holda yuzaga keladi. Sharoit ko‘pincha personajlar so‘zining ahamiyatini oshiradi, mazmunini chuqurlashtiradi, muayyan vaziyatda personajning gapirishi shart ekanligi psixologik jihatdan asoslanadi. Demak, yozuvchilar personajlar nutqi orqali ularning o‘ziga xos xususiyatlarini, ruhiy dunyolarini, yashash tarzilarini, xarakterlarining mantig‘ini, muayyan sharoit uchun mushtarak tomonlarini ochib beradilar. Shunga ko‘ra personajlar nutqi qahramonlarni alohidalashtirish vositasi hisoblanadi [6].

Yuqorida aytilganidek, badiiy adabiyotda xoh nasr bo‘lsin, xoh nazm bo‘lsin, dialektizmdan foydalanish mumkin. Bu ba‘zan yozuvchining o‘ziga xos jihatlarini ochib beradi, ba‘zan esa personajlarning individualligini ta‘minlash vositasidir. Shuningdek, ijodkor o‘z hududiga xos so‘zlarni ishlatishi orqali hududning til xususiyatlarini ko‘rsatadi. Dialektizmlarning badiiy matnda ishlatilishi ekspressivlikni oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi. Darslik. – Toshkent: Navro‘z, 2016. – 136 b.
2. Xusanova M. Farida Afro‘z she‘riyatida ekspressivlik ifodalovchi lisoniy vositalar. – Toshkent: Classik, 2023. –116 b.
3. <https://tafakkur.net/arslon-orgatuvchi/erkin-vohidov.uz>
4. <https://tafakkur.net/sirdaryo-olani/erkin-vohidov.uz>
5. Tabassum:she‘riy mutoiba, lutfu latifalar / E. Vofidov. –T.:Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010. –284 b.
6. Xudoyberdiyev, E. Adabiyotshunoslikka kirish: Oliy o‘quv yurti talabalari uchun darslik. –Toshkent: Sharq, 2008.
7. Jurayeva, N. G., Raimjanova, N. K., Djamalutdinova, B. R., Khorunova, S. B., & Jumaeva, S. D. (2021). Creative features of non-traditional lessons in English lesson in the sphere of higher education.
8. Juraeva, N. G. (2021). Observation of the poetic unity of the verse in the poetry of Muhammad Riza Ogahi. International Journal of Linguistics, Literature and

Culture, 7(4), 293-302.

9. Abdullayeva, M. (2025). PISA TOPSHIRIQLARI TAHLILI VA O‘QITISH JARAYONIGA TA’SIRI. FARS International Journal of Education, Social Science & Humanities., 13(10), 373-375.